



Hujjat haqiqiylikini mobil qurilma
yordamida QR- kodni skaner
qilish orqali tekshirish mumkin

01-25/93
30.12.2025-yil

“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston Respublikasi
oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vaziri



K. Sharipov

2025-yil “30”-dekabr

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida o‘tkazilgan “Ta’lim tizimida
inklyuziv muhit: nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyatlar va mavjud
to‘siqlar” mavzusida jamoatchilik eshituvi
93-son bayoni**

2025-yil “22”-dekabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

K.Sharipov – Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vaziri

Qatnashdilar:

vazir maslahatchilari, departament, boshqarma va
bo‘lim rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*), Jamaotchilik
kengashi a‘zolari, fuqarolik jamiyati institutlari
vakillari, talabalar.

KUN TARTIBI:

**“Ta’lim tizimida inklyuziv muhit: nogironligi bor shaxslar uchun imkoniyatlar va
mavjud to‘siqlar” mavzusidagi jamoatchilik eshituvi to‘g‘risida**

(Sharipov, Meliboyev, Abduqunduzova, Abduhalilov, Muxtorov, To‘ymurodov, Bo‘tayeov)

Jamoatchilik eshituvini kirish so‘zi bilan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri **K. Sharipov** ochib berdi. Vazir o‘z nutqida, avvalo, vazirlik tomonidan **2025-yil davomida** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari hamda Hukumat hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi, **oliy ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan ishlar** to‘g‘risida ma’lumot berdi.

2025-yilda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Ijro.gov.uz” axborot tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari hamda Hukumat hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosi izchil va tizimli ravishda ta’minlandi.

Hisobot davrida vazirlikka “Ijro.gov.uz” tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **472 ta hujjati** kelib tushdi. Shundan **82 tasi** Prezident farmoni, **280 tasi** Prezident qarori, **7 tasi** Prezident farmoyishi va **103 tasi** esa Prezident yig‘ilishlari bayonlari hisoblanadi.

Mazkur hujjatlarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga **jami 2 511 ta topshiriq** yuklatilgan bo'lib, shundan Prezident farmonlari doirasida – **445 ta**, Prezident qarorlari bo'yicha – **1 779 ta**, Prezident farmoyishlari asosida – **21 ta**, Prezident yig'ilishlari bayonlari bo'yicha esa – **266 ta topshiriq** belgilangan.

Ushbu topshiriqlarning **2 463 tasi** belgilangan muddatlarda bajarilgan bo'lsa, **48 tasi** kechiktirilgan holda ijro etilgan. Bu vazirlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning mutlaq aksariyati o'z vaqtida bajarilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2025-yil davomida vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining **56 ta hujjati** kelib tushgan bo'lib, ularning **45 tasi rezolyutsiyalardan** iborat. Mazkur hujjatlar doirasida vazirlikka **134 ta topshiriq** belgilangan. Hisobot davrida **65 ta topshiriq** belgilangan muddatda, **9 tasi** esa muddatidan kech bajarilgan.

Shu bilan birga, "Ijro.gov.uz" tizimi orqali 2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **480 ta hujjati** vazirlikka kelib tushdi. Ulardan **73 tasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari** hisoblanadi. Mazkur qarorlarda belgilangan **73 ta topshiriqdan 69 tasi belgilangan muddatlarda, 4 tasi esa kechiktirilgan holda** bajarilgan.

Umuman olganda, 2025-yil davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "Ijro.gov.uz" tizimi orqali kelib tushgan Prezident, Prezident Administratsiyasi rahbari va Hukumat topshiriqlarining **asosiy qismi o'z vaqtida va sifatli ijro etildi**. Bu esa vazirlik faoliyatida ijro intizomi, mas'uliyat va tizimli yondashuv ustuvor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Hududiy va kadrlar tayyorlash ixtisoslashuvi jihatidan yaqin bo'lgan **29 ta** oliy ta'lim tashkiloti negizida **12 ta** yangi oliy ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning soni **207 taga** yetdi;

oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar soni 2017-yilda **280 mingga** yaqin bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ushbu ko'rsatkich **1,7 mingga** yetdi (o'sish – **6 barobar**);

2025/2026 o'quv yili uchun respublika davlat oliygohlariga jami **217 276 ta**, jumladan, bakalavriatga **195 327 ta** va magistraturaga **21 949 ta** umumiy qabul parametrlari tasdiqlandi;

masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari soni **21 tadan 52 taga** oshirildi;

2025/2026 o'quv yilidan boshlab magistratura mutaxassisliklari bo'yicha **kechki va masofaviy ta'lim** shakllarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi;

oliy ta'lim tizimida **dual ta'limni tashkil etish tartibi** tasdiqlandi;

2025-yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan **qamrov darajasi 44 foizga** yetdi;

2025/2026 o'quv yilida **52 ta** oliygohga kirish uchun o'tkazilgan **152 ta** ta'lim yo'nalishi bo'yicha **kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari va baholash mezonlari** tasdiqlandi;

2025/2026 o'quv yilidan boshlab abituriyentlarga **5 ta** ta'lim yo'nalishiga qo'shimcha ravishda **6-ta'lim yo'nalishini** tanlash imkoniyati berildi;

mutaxassisligi bo'yicha kamida **5 yil mehnat stajiga** ega, lekin **oliy ma'lumotga ega bo'lmagan** xotin-qizlar uchun to'lov-kontrakt asosidagi **500 ta** qabul parametrlari 5 barobarga oshirilib, 2025/2026 o'quv yili uchun **2 500 ta** etib tasdiqlandi;

Respublikada faoliyat olib borayotgan **32 ta** xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari hamda **74 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari uchun ajratilgan **1 200 ta davlat granti kvotasi 1 320 taga** oshirildi;

oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim grantlarini tabaqalashtirilgan tartibda **qayta taqsimlash** amaliyoti joriy etildi;

oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni **20 ming** nafarga yetkazildi;

TOP-500 ga kirgan **9 ta** xorijiy oliygoh bilan kelishuvlarga erishilib, ular bilan hamkorlikda **17 ta qo'shma ta'lim dasturining** qabul kvotalari tasdiqlandi;

11 ta oliygohdagi **40 ta** ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi;

TOP-300 ga kirgan xorijiy oliygohlarning ta'lim dasturlari asosida davlat oliy ta'lim tashkilotlaridagi yuqori kurslarning **14 000 tadan** ortiq o'quv dasturlari takomillashtirildi;

professor-o'qituvchilardan **6 139 nafari xorijda** malaka oshirdi, **3 859 nafar xorijiy** professor-o'qituvchilar o'quv jarayoniga jalb etildi.

Vazir bugungi kunda vazirlik tomonidan qabul qilinayotgan **normativ-huquqiy hujjatlar va ichki qarorlar** monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan **tizimli ravishda tahlil qilib borilayotganini** ta'kidladi.

Shuningdek, K. Sharipov **nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish huquqini ta'minlash**, oliy ta'lim tizimida **inklyuziv muhitni shakllantirish** davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini alohida qayd etdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, **2025-yilda I-II guruh nogironligi bo'lgan abituriyentlar uchun 3 907 ta qo'shimcha davlat granti kvotasi** ajratilib, **3 258 nafar yoshlar** oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etilgan. Shuningdek, ko'zi ojiz abituriyentlar uchun alohida kirish imtihonlari tashkil etilgani, magistraturaga qabul jarayonida ayrim toifadagi fuqarolar uchun **xorijiy til sertifikatini talabi bekor qilingani** inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan muhim islohotlar sifatida e'tirof etildi.

Jamoatchilik eshituvi davomida **O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi vakillari**, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan **nogironligi bo'lgan talabalar**, shuningdek, **ilmiy tadqiqotchilar** tomonidan inklyuziv ta'lim amaliyoti, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan **taklif va tavsiyalar** bildirildi.

Xususan, O'zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi raisi o'rinbosari, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi **A. Abduhalilov** so'zga chiqib, so'nggi yillarda nogironlik masalalari bo'yicha kyeng ko'lamli **sotsiologik va ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganini** ta'kidlab, mavjud muammolarni **bartaraf etishga qaratilgan strategik yondashuvlarni belgilash muhim** ekanini qayd etdi hamda ushbu yo'nalishda quyidagi takliflarni ilgari surdi:

- oliy ta'lim tizimi uchun barcha turdagi alohida ehtiyojlarga ega ta'lim jarayoni ishtirokchilarini qamrab oluvchi **inklyuziv ta'lim strategiyasini ishlab chiqish**;

- oliy ta'lim muassasalari uchun **inklyuziv muhit standartlarini ishlab chiqish va joriy etish**;

- **inklyuziv muhit standartlarini baholash mexanizmlarini yaratish** hamda uni **bosqichma-bosqich amalga oshirish;**

-inklyuziv ta'lim berish bo'yicha **professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini kuchaytirish;**

-nogironligi bo'lgan shaxslarni **kasbga yo'naltirish (proforiyentatsiya) tizimini joriy etish;**

-nogironligi bo'lgan professor-o'qituvchilar uchun oliy ta'lim muassasalarida **shaxsiy yordamchi shtatini joriy etish;**

- oliy ta'lim muassasalarining **milliy reyting tizimiga "inklyuzivlik" indikatorini kiritish,** inklyuzivlikni samarali ta'minlagan OTMlarni qo'shimcha ball bilan rag'batlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarida **nogironligi bo'lgan talabalar bilan ishlovchi maxsus bo'linmalarni tashkil etish;**

- **kirish va test imtihonlarini moslashtirish,** jumladan, Brayl yozuvini bilmaydigan ko'zi ojizlar uchun muqobil mexanizmlar, harakatida cheklovlari bo'lgan shaxslar uchun assistent orqali test topshirish imkoniyatlarini yaratish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun **surdotarjimon va tiflopedagoglar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;**

- oliy ta'lim tizimida **"Disability studiyes" (nogironlik tadqiqotlari)** yo'nalishini joriy etish;

-nogironlik masalalari bo'yicha **ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish;**

- oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi o'rtasida memorandum imzolash.

So'ng jamoatchilik eshituvida **Vestminster universiteti magistranti M. Muxtorovga** so'z berildi. U o'z chiqishida **autistik spektr buzilishi va Down sindromiga chalingan,** shuningdek, boshqa turdagi aqliy nogironligi bo'lgan yoshlarning ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish jarayonida duch kelayotgan muammolarga alohida to'xtalib, ushbu yo'nalishda qator amaliy takliflarni ilgari surdi. Xususan, M. Muxtorov quyidagi tashabbuslarni bildirdi:

- **kasbiy ta'lim tashkilotlarida intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoshlarni kasbga yo'naltiruvchi maxsus dasturlarni joriy etish,** bu orqali ushbu toifadagi yoshlarni mehnat bozoriga mos kasblarga yo'naltirish, ularning bandligini ta'minlash hamda ota-onalarining ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish;

- **Vazirlik va oliy ta'lim tashkilotlarida nogironlik masalalari bo'yicha maslahatchi (konsultant) institutini joriy etish,** bu orqali vazirlik, oliy ta'lim muassasalarining inklyuziv ta'lim bilan shug'ullanuvchi bo'linmalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yaratish;

-nogironligi bo'lgan yoshlarning ta'lim jarayonida **ma'naviy va ijtimoiy to'siqlarga duch kelmasligini ta'minlash** maqsadida nogironlikning **ijtimoiy modelini** targ'ib qilishga qaratilgan **metodik qo'llanma** ishlab chiqish;

- ta'lim dasturlarining ayrim qismlarini **“easy-to-read” (oson o'qiladigan) formatga** o'tkazish, bu orqali aqliy nogironligi bo'lgan shaxslarning oliy va kasbiy ta'lim tizimiga kengroq jalb etilishini ta'minlash;

- **CEFR va IELTS imtihonlarini individual ehtiyojlarga moslashtirish**, bu orqali chet tillarni o'qitish bo'yicha inklyuziv tayyorgarlik infratuzilmasini rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarida **volontyorlik harakatini tizimli yo'lga qo'yish** bo'yicha yangi tartib ishlab chiqish.

Shu bilan birga, Buxoro davlat universiteti doktoranti **D. To'ymurodov** oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarini **braille yozuvidagi kitoblar va braille displeylar** bilan bosqichma-bosqich ta'minlash, shuningdek, **har bir OTMda tiflopedagog shtatini joriy etish** zarurligini ta'kidladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori, **“Istiqbol tadqiqot”** nodavlat notijorat markazi rahbari **U. Bo'tayev** nogironligi bo'lgan talabalar bilan bog'liq **ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli yo'lga qo'yish** muhimligini qayd etdi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining **axborot-resurs markazlari uchun nogironligi bo'lgan talabalar ehtiyojlariga mos moddiy-texnik bazani xarid qilish xarajatlarini smetaga kiritish** masalasini ko'rib chiqish bo'yicha taklif kiritdi.

Yig'ilish davomida bildirilgan taklif va tashabbuslar yuzasidan atroflicha fikr almashilib, ishtirokchilar oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini inklyuziv talablar asosida moslashtirish, talabalar turar joylarida nogironligi bo'lgan talabalar uchun qulay va xavfsiz sharoitlarni yaxshilash, inklyuziv ta'lim yo'nalishida malakali mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarni keng joriy etish masalalarini muhokama qildilar.

Nogironligi bo'lgan talabalar bilan **ishlovchi maxsus bo'linmani** tashkil etish, shuningdek, **“Disability studies”** (nogironlik tadqiqotlari) yo'nalishi va oliy ta'lim muassasalari huzurida **nogironlik masalalari bo'yicha maslahatchi (consultant) institutini** joriy etishni **O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent davlat jahon tillari universitetida** tajriba-sinov tariqasida amalga oshirish maqsadga muvofiq ekani qayd etildi.

Ushbu yondashuv mazkur yo'nalishlarning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish, samaradorligini baholash hamda keyinchalik boshqa oliy ta'lim muassasalarida joriy etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish istagida bo'lgan boshqa oliy ta'lim tashkilotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida belgilandi.

Yig'ilish yakunida bildirilgan taklif va tashabbuslar yuzasidan vazirlik mas'ullariga bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Kun tartibida muhokama qilingan masalalar, bildirilgan fikr-mulohazalar va ilgari surilgan takliflarni inobatga olgan holda, yig'ilish **qaror qiladi:**

1. **Axborot xizmatlari bo'limi** (Abduqunduzova):

2026-yil o'tkaziladigan nodavlat notijorat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha loyihalar tanlovida oliy ta'lim muassasalari uchun **to'siqsiz muhit standartlarini ishlab chiqish va joriy etish** bo'yicha kelib tushadigan loyihalarga ahamiyat qaratsin;

bir oy muddatda O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi bilan hamkorlik memorandumini ishlab chiqsin;

ikki oy muddatda oliy ta'lim tashkilotlarida nogironligi bo'lgan talabalar hamda professor-o'qituvchilar bilan ishlaydigan Ishchi guruh tuzish choralarini ko'rsin.

2. Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (Yuldashev) ikki hafta muddatda professor-o'qituvchilarning inklyuziv ta'limga oid **malakasini oshirish** bo'yicha taklif kiritсин.

3. Kasbiy ta'lim agentligi (Husanov) **10 kun muddatda** kasbiy ta'lim tashkilotlarida **kasbga yo'naltiruvchi dasturlarni** joriy etish orqali nogironligi bo'lgan shaxslarni **kasbga yo'naltirish tizimini** yo'lga qo'yish bo'yicha taklif kiritсин.

4. Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi (Xalilov) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (Gaybullayev) bilan birgalikda davlat oliy ta'lim tashkilotlarida nogironligi bo'lgan professor-o'qituvchilar uchun shaxsiy yordamchi shtatini joriy etish masalasini tashkiliy jihatlarini o'rganib chiqsin hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan moliyaviy tarafini ko'rib chiqib, natijasi yuzasidan Rahbariyatga ma'lumot kiritсин.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim tashkilotlari **Axborot-resurs markazlari** uchun nogironligi bo'lgan talabalar ehtiyojlariga mos keladigan **moddiy-texnik bazalar** uchun zarur mablag'larni **budjet va budjetdan tashqari xarajatlar smetasiga** kiritish choralarini ko'rsin.

5. Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti (Mamanazarov) ikki hafta muddatda Bilim va malakalarni baholash agentligi (M. Karimov) bilan birgalikda ko'zi ojiz toifasidagi abituriyentlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga **qabul qilishda kirish sinovlarini yanada takomillashtirishga** qaratilgan takliflarni kiritсин.

6. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (Gaybullayev) 10 kun muddatda vazirlik va oliy ta'lim muassasalari huzurida **nogironlik masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini** joriy etish yuzasidan taklif kiritсин.

7. Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi (Daminov), Innovatsion rivojlanish agentligi (Norov) oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim bo'yicha davlat ilmiy dasturlari doirasida bajariladigan **ilmiy-tadqiqot loyihalarini ko'paytirish imkoniyatlarini** o'rganib chiqsin.

8. Yuridik ta'minlash bo'limi (Fayziyev) taqdim etilgan takliflarni belgilangan tartibda **o'rganib chiqsin**, ularni kelgusida sohani takomillashtirishga oid tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish choralarini ko'rsin.

9. Mazkur yig'ilish bayonining ijrosini nazorat qilish vazir maslahatchisi A.Meliboyev zimmasiga yuklansin.